

MATEMATIKA

Pedagogika institutlari maxsus sirtqi bo'limi uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

Muallifilar: f.-m.f.n. Sh.N. Ismailov , Atakulov O., Eshonchaeva G.N.

Yaratilgan: Angren 2005 yil

Kategoriya: Matematika

Bo'lim: Maxsus sirtqi

Institut: Toshkent viloyat davlat pedagogika instituti

Fakultet: Matematika va fizika

Kafedra: Matematika

Electron fayl turi : RAR

Electron fayl xajmi:

ANNOTATSIYA

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma pedagogika institutlarining maxsus sirtqi bo'limida tahsil olayotgan talabalar uchun muljallangan.

Qo'llanma uz ichiga ma'ruzalar matni va SOIT uchun individual vazifalarni olgan.

Mundarija

SO'Z BOSHI

1 – mavzu. Matritsa va determinant.

2 – mavzu. Chiziqli tenglamalar sistemasi.

3 -mavzu. Differentsial Hisob elementlari.

4 –mavzu. Integral hisob elementlari.

5-mavzu. Ehtimollar nazariyasining matematik asoslari.

6 -mavzu. Matematik statistika elementlari.


ADABIYOTLAR

Individual vazifalar.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi
Toshkent viloyat Davlat Pedagogika instituti

Ismailov Sh.N., Atakulov A.M., Eshonchayeva G.N.

4	9	2
3	5	7
8	1	6



۴	۹	۲
۳	۵	۷
۸	۱	۶

Matematika

*Pedagogika institutlari maxsus sirtqi bo'limi
uchun o'quv- uslubiy qo'llanma*

Angren-2005 y.

UDK 51(075)
BBK 22.11я73

M 367

*Taqrizchi: TVDPI Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası
(kafedra mudiri TVDPI professori Abdiyev U.N.)*

TVDPI O'quv Metodik Kengashi qaroriga binoan nashr qilindi.

Ismailov Sh.N., Atakulov A.M., Eshonchayeva G.N.

M 367 Математика. О'quv-uslubiy qo'llanma. / Angren, 2005.
ISBN 5-88874-227-9.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma pedagogika institutlarining maxsus sirtqi bo'limida tahsil olayotgan talabalar uchun muljallangan.
Qo'llanma uz ichiga ma'ruzalar matni va individual vazifalarni olgan.

ISBN 5-88874-227-9

© Ismailov Sh. N., 2005

SO'Z BOSHI

Oliy ta'limning fundamentalligi real dunyodagi jarayonlar, ob'ektlar va xodisalar orasidagi munosabatlarni ajratib bila olishga yo'naltirilgan bo'lib, yuqori malakali yoshlarni tarbiyalashda asos sifatida qabul qilingan. Davlat ta'lim standartlari (DTS) tayyorlanayotgan kadrlarning malaka va kunikmalariga yuqori talablarni qo'ymoqda. Shu talablar zamonaviy sharoitlardan bevosita kelib chiqqan bo'lib, ularning maqsadi – ta'lim olayotgan yoshlardan milliy intellektual elitani shakllantirish, voholanki matematik madaniyat — zamonaviy madaniyatning tarkibiy qismidir.

Matematika — yetarlicha umumiy nuqtai nazardan barcha miqdoriy munosabatlarni va fazoviy shakllarni klassifikatsiya qiladigan va o'rganadigan fan sifatida e'tirof e'tilib, uni o'qitishning asosiy maqsadi - talabalarni zamonaviy matematika fani insonning kundalik xayotida alohida o'rin tutishini isbotlash.

Albatta, o'quv soatlarining miqdori, tayanch tushunchalar majmuasining xajmi hamda talabalarining psixologik hususiyatlari xar bir professor-o'qituvchidan mavzuni bayon etishda yuksak e'tiborni va sabr-toqatni talab qilib, yangi axborot va ta'lim texnologiyalarning zamonaviy yutuqlardan foydalanishga chorlaydi.

Shuni ta'kidlashimiz lozimki, o'quv materialni bayon etishda tayanch tushunchalarni etarli darajada aniq va sodda berish maqsadga muvofiqdir. Albatta bunda asosiy g'oyalar va natijalarni ma'lum darajada erkin berishga majburiy. Agar teoremlarning isboti murakkab bo'lsa, uni to'la bermasdan, balki mantiqiy tomonlariga e'tiborni kuchaytirish kerak.

Amaliy mashg'ulotlarda tadbirlarda keng qo'llanilayotgan asosiy matematik usullarni o'rgatishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Ma'lum sababalariga ko'ra ma'ruzaga kirmagan va murakkab bo'lgan tushunchalarni amaliy mashg'ulotlarda ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir. 2- ilovadagi vazifalar uyda bajariladi.

Tayanch tushunchalarni bayon etishda ShEHM, proektor kabi texnik vositalardan keng foydalanishi ko'zda tutilgan. Ma'ruzalarni slaydlarini yaratishda va ekranda namoyish qilishda Microsoft Power Point va Flash texnologiyalardan, ayrim sonli va analitik hisob-kitoblarda Maple kompyuter dasturidan foydalanish maqsadga muvofiq.

1- ilovadagi material asosida davra suxbatlarni utkazilishini tavsiya etamiz. Bunda talabalar Internet va boshqa manbaalardan foydalanib uzlari matematikaning inson turmushidagi o'rnini, matematika metodlarining gumanitar va tabiiy fanlarga tatbiqi, matematikaning asosiy bo'limlari haqida tarixiy va boshqa ma'lumotlar, buyuk allomalar hayoti va ijodi, matematikaga qo'shgan hissalar kabi mavzular bo'yicha qisqacha ma'lumotlar bayon qiladilar. Tabiiyki, bunday tadbirlar talabalarda matematika faniga qiziqishni kuchaytiradi va yuqorida qayd etilgan maqsadlarga erishishga za'min yaratadi.

Mualliflar.

Mundarija

SO'Z BOSHI.....	4
1 – mavzu. Matritsa va determinant.....	6
2 – mavzu. Chiziqli tenglamalar sistemasi.	Ошибка! Закладка не определена.
3 -mavzu. Differentsial Hisob elementlari.	14
4 –mavzu. Integral hisob elementlari. ..	Ошибка! Закладка не определена.
5-mavzu. Ehtimollar nazariyasining matematik asoslari.	26
6 -mavzu. Matematik statistika elementlari.	Ошибка! Закладка не определена.
ADABIYOTLAR.....	30
Individual vazifalar.	31

1 – MAVZU. CHIZIQLI ALGEBRA ELEMENTLARI.

1. Maqsad: Chiziqli algebraning asosiy usullarini bayon qilish.

2. Reja:

1. Matritsa tushunchasi.
2. Matritsalar ustida asosiy amallar.
3. Determinant.
4. Teskari matritsa.
5. Chiziqli tenglama va chiziqli tenglamalar sistemasi (ChTS).
6. Chiziqli tenglamalar sistemasining elementar almashtirishlari.
7. Gauss usuli.
8. Teskari matritsa usuli.
9. Kramer qoidasi

3. Mavzu bayoni

Matritsa tushunchasi.

m ta a_{ij} ($i=1, \dots, m, j=1, \dots, n$) sonlardan tashkil topgan

$$A = (a_{ij}) = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_{mn} \end{pmatrix}$$

m satrli va n ustunli matritsa deyiladi. Shunday matritsalar to'plamini $R^{m \times n}$ orqali belgilaymiz.

Ustunlar (yoki satrlar) soni birga teng matritsa *vektor* deyiladi.

Ustunlar soni satrlar soniga teng matritsa *kvadrat* matritsa deyiladi.

$$\begin{pmatrix} a_{11} & 0 & \dots & 0 \\ 0 & a_{22} & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots & 0 \\ 0 & 0 & \dots & a_{nn} \end{pmatrix} \text{ ko'rinishdagi kvadrat matritsa } \textit{diagonal} \text{ matritsa deb yuritiladi.}$$

m satrli va n ustunli ikkita A, B matritsalar *nomdosh* deyiladi.

Ta'rif. $A, B \in R^{m \times n}$, $A = (a_{ik})$, $B = (b_{ik})$ matritsalar uchun $a_{ik} = b_{ik}$, $i=1, \dots, m$, $k=1, \dots, n$, tengliklar bajarilsa, bu matritsalar *teng* deyiladi.

Matritsalar ustida asosiy amallar.

Ta'rif. $A, B \in R^{m \times n}$, $A = (a_{ik})$, $B = (b_{ik})$ matritsalar *yig'indisi* deb elementlari

$$c_{ik} = a_{ik} + b_{ik}, \quad i=1, \dots, m, \quad k=1, \dots, n,$$

tengliklarni qanoatlantiruvchi $C = (c_{ik}) \in R^{m \times n}$ matritsaga aytiladi va u $A + B$ orqali belgilanadi.

Misol. $\begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 0 & 1 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ 1 & 1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1+0 & 2+1 \\ 0+1 & 1+1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 & 3 \\ 1 & 2 \end{pmatrix},$

Agar $A \in R^{m \times n}$, $\lambda \in R$ bo'lsa, u holda A matritsaning λ skalyarga ko'paytmasi deb $\lambda A = (b_{ik})$, $b_{ik} = \lambda a_{ik}$, $i=1, \dots, m$, $k=1, \dots, n$, matritsaga aytiladi.

Ta'rif. $A \in R^{m \times n}$, $B \in R^{n \times t}$, $A = (a_{ip})$, $B = (b_{pk})$ matritsalar *ko'paytmasi* deb

elementlari $c_{ik} = \sum_{p=1}^n a_{ip} b_{pk}$, $i=1, \dots, m$, $k=1, \dots, t$, tengliklarni qanoatlantiruvchi

$C=(c_{ik}) \in R^{m \times t}$ matritsaga aytiladi va u $A B$ orqali belgilanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, $A \in R^{m \times n}, B \in R^{n \times t}$ matritsalar uchun $B A$ matritsa faqat $t=s$ bo'lganda aniqlangan. Bu holda $A B \in R^{m \times t}, B A \in R^{n \times n}$, Umuman aytganda $m=n$ bo'lganda ham (ya'ni $A \in R^{m \times m}, B \in R^{m \times m}$ matritsalar uchun $A B \neq B A$ bo'ladi, ya'ni ko'paytirish amali nokommutativ amaldir. Ushbuni qo'yidagi misol ko'rsatadi.

Misollar. A) $\begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 0 & 1 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ 1 & 1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \cdot 0 + 2 \cdot 1 & 1 \cdot 1 + 2 \cdot 1 \\ 0 \cdot 0 + 1 \cdot 1 & 0 \cdot 1 + 1 \cdot 1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 & 3 \\ 1 & 1 \end{pmatrix}, \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ 1 & 1 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 0 & 1 \end{pmatrix} =$
 $= \begin{pmatrix} 0 \cdot 1 + 1 \cdot 0 & 0 \cdot 2 + 1 \cdot 1 \\ 1 \cdot 1 + 1 \cdot 0 & 1 \cdot 2 + 1 \cdot 1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ 1 & 3 \end{pmatrix}.$

b) $\begin{pmatrix} 1 \\ 4 \\ 3 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 4 & 1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \cdot 2 & 1 \cdot 4 & 1 \cdot 1 \\ 4 \cdot 2 & 4 \cdot 4 & 4 \cdot 1 \\ 3 \cdot 2 & 3 \cdot 4 & 3 \cdot 1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 & 4 & 1 \\ 8 & 16 & 4 \\ 6 & 12 & 3 \end{pmatrix}.$

c) $\begin{pmatrix} 4 & 1 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 1 \\ 4 \\ 3 \end{pmatrix} = 2 \cdot 1 + 4 \cdot 4 + 1 \cdot 3 = 2 + 16 + 3 = 21.$

d) $\begin{pmatrix} 2 \\ 5 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 3 & 4 \\ 5 & 6 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 \cdot 3 + 5 \cdot 5 & 2 \cdot 4 + 5 \cdot 6 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 29 & 38 \end{pmatrix}.$

Ta'rif. $E = \begin{pmatrix} 1 & 0 & \dots & 0 \\ 0 & 1 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & 1 \end{pmatrix}$ ko'rinishdagi n -tartibli diagonal kvadrat matritsa *birlik matritsa* deyiladi.

matritsa deyiladi.

$A \in R^{m \times n}$ matritsa uchun $AE=A$ o'rinli (agar bunda EA ko'paytma ham aniqlangan bo'lsa, u holda $EA=A$).

Teorema Matritsalar ko'paytirish amali assotsiativ bo'ladi, ya'ni agar $(A B)C$ va $A(BC)$ ko'paytmalardan birortasi mavjud bo'lsa, u holda ikkinchisi ham mavjud bo'lib, ular uchun $A(BC) = (A B)C$ munosabat o'rinli bo'ladi.

Bu teoremani isbot qilish uchun $A \in R^{m \times n}, B \in R^{n \times t}, C \in R^{t \times s}$ matritsalar uchun $(A B)C$ va $A(BC)$ matritsalar elementlari hisoblanib, biri biriga solishtiriladi.

Teorema. Matritsalar ko'paytirish amali qo'shishi amaliga nisbatan distributiv bo'ladi. Ya'ni $(A+B)C$ va $AB+AC$ ($A(B+C)$ va $AB+AC$) matritsalaridan birortasi mavjud bo'lsa, u holda ikkinchisi ham mavjud bo'lib, ular uchun $(A+B)C = AB+AC$ ($A(B+C) = AB+AC$) munosabat o'rinli bo'ladi.

Qo'yidagi xossalar o'rinli:

$$\alpha(B+C) = \alpha B + \alpha C; (\alpha+\beta)B = \alpha B + \beta B; (\alpha\beta)B = \alpha(\beta B); 1B = B; \alpha(BC) = (\alpha B)C = B(\alpha C)$$

Determinantlar.

Ta'rif. Ikkinchi tartibli $A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{pmatrix} \in R^{2 \times 2}$ kvadrat matritsaning *determinanti* (ya'ni 2 - tartibli determinant) deb

$$\det A = |A| = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22} - a_{12}a_{21} \quad (1)$$

songa aytiladi.

Ta'rif. Uchinchi tartibli $A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix} \in R^{3 \times 3}$ kvadrat matritsaning *determinanti*

(ya'ni 3 –tartibli determinant) deb

$$\det A = |A| = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = a_{11} \begin{vmatrix} a_{22} & a_{23} \\ a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} - a_{12} \begin{vmatrix} a_{21} & a_{23} \\ a_{31} & a_{33} \end{vmatrix} + a_{13} \begin{vmatrix} a_{21} & a_{22} \\ a_{31} & a_{32} \end{vmatrix} =$$

$$= a_{11} a_{22} a_{33} + a_{13} a_{21} a_{32} + a_{12} a_{13} a_{31} - a_{13} a_{22} a_{31} - a_{11} a_{13} a_{32} - a_{12} a_{21} a_{33} . \quad (3)$$

songa aytiladi.

3 –tartibli determinantni hisoblashga doir konkret misollarda turli mnemonik shoidalar mavjud. Shu shoidalar bilan sizlar amaliy mashg'ulotlarda tanishasizlar.

Misollar. a) $\begin{vmatrix} 2 & -3 & -1 \\ 4 & -1 & 2 \\ 3 & 5 & 0 \end{vmatrix}$ ni hisoblaymiz. Bu uchun (3) formulaga ko'ra

$$\begin{vmatrix} 2 & -3 & -1 \\ 4 & -1 & 2 \\ 3 & 5 & 0 \end{vmatrix} = 2 \begin{vmatrix} -1 & 2 \\ 5 & 0 \end{vmatrix} - (-3) \begin{vmatrix} 4 & 2 \\ 3 & 0 \end{vmatrix} + (-1) \begin{vmatrix} 4 & -1 \\ 3 & 5 \end{vmatrix} =$$

$$= 2(-1 \cdot 0 - 2 \cdot 5) + 3(4 \cdot 0 - 2 \cdot 3) - 1(4 \cdot 5 - (-1) \cdot 3) = -61.$$

Misol. $\begin{pmatrix} 2 & -3 & -1 \\ 4 & -1 & 2 \\ 3 & 5 & 0 \end{pmatrix}$ matritsa uchun M_{31} va A_{23} ni hisoblaymiz.

$$M_{31} = \begin{vmatrix} -3 & -1 \\ -1 & 2 \end{vmatrix} = -3 \cdot 2 - (-1) \cdot (-1) = -6 - 1 = -7. \quad A_{23} = (-1)^5 \begin{vmatrix} 2 & -3 \\ 3 & 5 \end{vmatrix} = -(2 \cdot 5 - (-3) \cdot 3) = -19.$$

Teskari matritsa.

Ta'rif. $A \in R^{n \times n}$ kvadrat matritsa *teskarilantiruvchi* deyiladi, agar $AB=BA=E$ shartlarni qanoatlantiruvchi B matritsa mavjud bo'lsa, bu holda B matritsa A ga nisbatan *teskari matritsa* deb yuritiladi.

Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, $B \in R^{n \times n}$, $E \in R^{n \times n}$ bo'ladi.

Biz ma'ruzamizda faqat $n=4$ holni qaraymiz.

A ga nisbatan teskari matritsani biz A^{-1} orqali belgilaymiz.

Teorema. Agar $A \in R^{3 \times 3}$ matritsaning determinanti noldan farqli bo'lsa, u holda formula o'rinli.

$$A^{-1} = \frac{1}{\det A} \begin{pmatrix} A_{11} & A_{21} & A_{31} \\ A_{12} & A_{22} & A_{32} \\ A_{13} & A_{23} & A_{33} \end{pmatrix}$$

Misol. $A = \begin{pmatrix} 5 & -1 & -1 \\ 1 & 2 & 3 \\ 4 & 3 & 2 \end{pmatrix}$ bo'lsa A^{-1} ni toping.

Yechim. $\det A = \begin{vmatrix} 5 & -1 & -1 \\ 1 & 2 & 3 \\ 4 & 3 & 2 \end{vmatrix} = 5(4-9) + 1(2-12) - 1(3-8) = -25 - 10 + 5 = -30.$

$$M_{11} = \begin{vmatrix} 2 & 3 \\ 3 & 2 \end{vmatrix} = -5; \quad M_{21} = \begin{vmatrix} -1 & -1 \\ 3 & 2 \end{vmatrix} = 1; \quad M_{31} = \begin{vmatrix} -1 & -1 \\ 2 & 3 \end{vmatrix} = -1;$$

$$M_{12} = \begin{vmatrix} 1 & 3 \\ 4 & 2 \end{vmatrix} = -10; \quad M_{22} = \begin{vmatrix} 5 & -1 \\ 4 & 2 \end{vmatrix} = 14; \quad M_{32} = \begin{vmatrix} 5 & -1 \\ 1 & 3 \end{vmatrix} = 16;$$

$$M_{13} = \begin{vmatrix} 1 & 2 \\ 4 & 3 \end{vmatrix} = -5; \quad M_{23} = \begin{vmatrix} 5 & -1 \\ 4 & 3 \end{vmatrix} = 19; \quad M_{33} = \begin{vmatrix} 5 & -1 \\ 1 & 2 \end{vmatrix} = 11;$$

$$\begin{aligned} a_{11}^{-1} &= \frac{5}{30}; & a_{12}^{-1} &= \frac{1}{30}; & a_{13}^{-1} &= \frac{1}{30}; \\ a_{21}^{-1} &= -\frac{10}{30}; & a_{22}^{-1} &= -\frac{14}{30}; & a_{23}^{-1} &= \frac{16}{30}; \\ a_{31}^{-1} &= \frac{5}{30}; & a_{32}^{-1} &= \frac{19}{30}; & a_{33}^{-1} &= -\frac{11}{30}; \end{aligned} \quad \text{Demak, } A^{-1} = \begin{pmatrix} \frac{1}{6} & \frac{1}{30} & \frac{1}{30} \\ -\frac{1}{3} & -\frac{7}{15} & \frac{15}{15} \\ \frac{1}{6} & \frac{19}{30} & -\frac{11}{30} \end{pmatrix}.$$

Tekshiramiz:

$$AA^{-1} = \begin{pmatrix} 5 & -1 & -1 \\ 1 & 2 & 3 \\ 4 & 3 & 2 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} \frac{5}{30} & \frac{1}{30} & \frac{1}{30} \\ -\frac{10}{30} & -\frac{14}{30} & \frac{16}{30} \\ \frac{5}{30} & \frac{19}{30} & -\frac{11}{30} \end{pmatrix} = \frac{1}{30} \begin{pmatrix} 25+10-5 & 5+14-19 & 5-16+11 \\ 5-20+15 & 1-28+57 & 1+32-33 \\ 20-30+10 & 4-42+38 & 4+48-22 \end{pmatrix} = E.$$

$$\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1r} & a_{1,r+1} & \dots & a_{1n} \\ & a_{22} & \dots & a_{2r} & a_{2,r+1} & \dots & a_{2n} \\ & & \dots & & & \dots & \\ \bigcirc & & & a_{rr} & a_{r,r+1} & \dots & a_{rn} \end{pmatrix},$$

ko'rinishdagi matritsa *zinasimon matritsa* deyiladi, bu yerda $a_{11}, a_{22}, a_{33}, \dots, a_{nn}$ - noldan farqli sonlar.

Chiziqli tenglama va chiziqli tenglamalar sistemasi (ChTS).

Ta'rif.

$$a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n = b \quad (1)$$

$x_1, x_2, \dots, x_n$ noma'lumli tenglama *chiziqli tenglama* deyiladi, bu yerda $a_1, a_2, \dots, a_n$ sonlar chiziqli tenglama *koeffitsientlari* va b son chiziqli tenglama *ozod hadi* deb yuritiladi. (1) ni qanoatlantiruvchi $(x_1, x_2, \dots, x_n)$ vektor esa uning *yechimi* deyiladi.

Agar $b = 0$ bo'lsa, u holda (1) ga *birjinsli chiziqli tenglama*, aks holda *birjinsli bo'lmagan chiziqli tenglama* deyiladi.

Ravshanki, har qanday bir jinsli chiziqli tenglama nol yechimga ega.

Ta'rif.

$x_1, x_2, \dots, x_n$ lar ChTSni noma'lumlari, $a_{ik} \in R$ – ChTS koefitsientlari, va $b_k \in R$ esa ozod hadlar deyiladi. (2) sistemani qanoatlantiruvchi $(x_1, x_2, \dots, x_n)$ vektor uning yechimi deyiladi. Agar (2) da barcha b_k sonlar nolga teng бўlsa, u holda (2) ga *bir-jinsli ChTS* (BChTS), aks holda u *birjinsli бўlmagan ChTS* deyiladi.

Chiziqli tenglamalar sistemasining elementar almashtirishlari.

(1)

Ta'rif. qōyidagi almashtirishlar ChTSni *elementar almashtirishlari* deyiladi:

- Teorema.** ChTS ustida chekli sondagi elementar almashtirishlar bajarilsa, hosil bōlgan yechimlar to'plami berilgan ChTS yechimlar to'plami bilan ustma –ust tushdi.

Avvalambor (1) sistemada ozod hadi va koeffitsientlari nolga teng bōlgan tenglamalar b faraz qilamiz, aks holda ularni barchasini tashlab yuboramiz .

Shuning uchun (1) sistemani yechishdan oldin, undagi tenglamalarda noldan farqli koeffitsientlar mavjud deb qabul qilamiz.

Zarur b\u00f6lsa, numeratsiyani \u00f6zgartirib, $a_{11} \neq 0$ deb qabul qilamiz.

köpaytirib qoşib chiqamiz. Natijada $2, 3, \dots, m$ tenglamalarda x_1 noma'lum yōqoladi va qōyidagi (1) ga ekvivalent sistema hosil bōladi:

(2)

(2) sistemada ozod hadi va koeffitsientlari nolga teng bōlgan tenglamalar yōq deb faraz qilamiz, aks holda ularni barchasini tashlab yuboramiz .

$$\left\{ \begin{array}{l} a_{22}'x_2 + \dots + a_{2n}'x_n = b_2' \\ \vdots \\ a_{m2}'x_2 + \dots + a_{mn}'x_n = b_m' \end{array} \right.$$

Noma'lumlar yօqotish jarayonini davom ettirib, natijada qօyidagi sistemaga kelamiz:

[illegible]

$x_1', x_2', \dots, x_r'$ noma'lumlar bosh noma'lumlar, $x_{r+1}', x_{r+2}', \dots, x_n'$ noma'lumlar esa ozod noma'lumlar deb yuritiladi.

natijada uchburchaksimon sistemani hosil qilamiz.

Bundan keyin bosh noma'lumlar aniq qiymatlari pastdan qarab ketma-ket topiladi.

$$\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} & \left| \begin{array}{c} b_1 \\ b_2 \\ \dots \\ b_n \end{array} \right. \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} & \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_{mn} & \end{pmatrix} \text{ matritsa ustida olib borish maqsadga muvofiq. Natijada}$$

u zinasimon matritsaga olib kelinadi.

$$\begin{cases} x + y - z = 2 \\ 2x + 3y - 5z = 5 \\ 3x + 4y - 6z = 7 \end{cases}$$

$$\underline{\text{Yechim.}} \quad \left(\begin{array}{ccc|c} 1 & 1 & -1 & 2 \\ 2 & 3 & -5 & 5 \\ 3 & 4 & -6 & 7 \end{array} \right) \Leftrightarrow \left(\begin{array}{ccc|c} 1 & 1 & -1 & 2 \\ 0 & 1 & -3 & -1 \\ 0 & 1 & -3 & -1 \end{array} \right) \Leftrightarrow \left(\begin{array}{ccc|c} 1 & 1 & -1 & 2 \\ 0 & 1 & -3 & -1 \\ 0 & 1 & -3 & -1 \end{array} \right) \Leftrightarrow \left(\begin{array}{ccc|c} 1 & 1 & -1 & 2 \\ 0 & 1 & -3 & -1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{array} \right)$$

Ohirgi matritsaga mos бўlgan sistema qōyidagicha yoziladi:
$$\begin{cases} x + y - z = 2 \\ y - 3z = -1 \end{cases}.$$

Ozod noma'lumni fiksirlaymiz: $z=t$. Natijada

$$\begin{cases} x + y = 2 + t \\ y = -1 + 3t \end{cases} \text{ sistema hosil b\u00f3ladi. Bundan } (3-2t, -1+3t, t), t \in \mathbb{R}, \text{ yechimlar oilasini}$$

hosil qilamiz.

Teskari matritsa usuli.

Bu bandda biz

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + a_{13}x_3 = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + a_{23}x_3 = b_2 \\ a_{31}x_1 + a_{32}x_2 + a_{33}x_3 = b_3 \end{cases} \quad (4)$$

ko'rinishdagi ChTS yechimini izlaymiz.

$$\text{Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: } A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}; \quad B = \begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \\ b_3 \end{pmatrix}; \quad X = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix}.$$

Faraz qilamiz A matritsa Δ determinanti noldan farqli.

(4) ChTS quyidagicha yozishimiz mumkin: $AX = B$.

Demak, $A^{-1}AX = A^{-1}B$. Ammo $EX = A^{-1}B$. U holda (4) teskari matritsa yagonaligidan ChTS $X = A^{-1}B$ ko'rinishdagi yagona yechimga ega.

Misol. $\begin{cases} 5x - y - z = 0 \\ x + 2y + 3z = 14 \\ 4x + 3y + 2z = 16 \end{cases}; X = \begin{pmatrix} x \\ y \\ z \end{pmatrix}, B = \begin{pmatrix} 0 \\ 14 \\ 16 \end{pmatrix}, A = \begin{pmatrix} 5 & -1 & -1 \\ 1 & 2 & 3 \\ 4 & 3 & 2 \end{pmatrix}$

Oldingi ma'ruzada biz $A^{-1} = \begin{pmatrix} \frac{1}{6} & \frac{1}{30} & \frac{1}{30} \\ -\frac{1}{3} & -\frac{7}{15} & \frac{8}{15} \\ \frac{1}{6} & \frac{19}{30} & -\frac{11}{30} \end{pmatrix}$ ni topganmiz.

Demak, $X = \begin{pmatrix} x \\ y \\ z \end{pmatrix} = A^{-1}B = \begin{pmatrix} \frac{1}{6} & \frac{1}{30} & \frac{1}{30} \\ -\frac{1}{3} & -\frac{7}{15} & \frac{8}{15} \\ \frac{1}{6} & \frac{19}{30} & -\frac{11}{30} \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 0 \\ 14 \\ 16 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} \frac{1}{6} \cdot 0 + \frac{14}{30} + \frac{16}{30} \\ -\frac{1}{3} \cdot 0 - \frac{98}{15} + \frac{128}{15} \\ \frac{1}{6} \cdot 0 + \frac{266}{30} - \frac{176}{30} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \\ 2 \\ 3 \end{pmatrix}.$

Kramer qoidasi. (Kramer Gabriel' (1704-1752) – Sveytsariya matematigi)

Agar $A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}$ matritsa Δ determinanti noldan farqli bo'lsa, u holda (4)

ChTSning yechimi $x_1 = \Delta_1 / \det A$; $x_2 = \Delta_2 / \det A$; $x_3 = \Delta_3 / \det A$ formulalar bo'yicha topiladi, bu yerda

$$\Delta_1 = \begin{vmatrix} b_1 & a_{12} & a_{13} \\ b_2 & a_{22} & a_{23} \\ b_3 & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix}; \quad \Delta_2 = \begin{vmatrix} a_{11} & b_1 & a_{13} \\ a_{21} & b_2 & a_{23} \\ a_{31} & b_3 & a_{33} \end{vmatrix}; \quad \Delta_3 = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & b_1 \\ a_{21} & a_{22} & b_2 \\ a_{31} & a_{32} & b_3 \end{vmatrix}.$$

$$\text{Misol. } \begin{cases} 5x - y - z = 0 \\ x + 2y + 3z = 14 \\ 4x + 3y + 2z = 16 \end{cases}$$

$$\Delta = \begin{vmatrix} 5 & -1 & -1 \\ 1 & 2 & 3 \\ 4 & 3 & 2 \end{vmatrix} = -30; \Delta_1 = \begin{vmatrix} 0 & -1 & -1 \\ 14 & 2 & 3 \\ 16 & 3 & 2 \end{vmatrix} = -30; \Delta_2 = \begin{vmatrix} 5 & 0 & -1 \\ 1 & 14 & 3 \\ 4 & 16 & 2 \end{vmatrix} = -60; \Delta_3 = \begin{vmatrix} 5 & -1 & 0 \\ 1 & 2 & 14 \\ 4 & 3 & 16 \end{vmatrix} = -90.$$

Demak, $x_1 = \Delta_1/\Delta = 1$; $x_2 = \Delta_2/\Delta = 2$; $x_3 = \Delta_3/\Delta = 3$.

4. Tayanch tushunchalar:

Matritsalar ustida asosiy amallar va ularning asosiy xossalari, determinantlar, teskari matritsa. Chiziqli tenglamalar, chiziqli tenglamalar sistemasi, yechim, elementar almashtirishlar, ekvivalent sistemalar, Gauss usuli, bosh va ozod noma'lumlar, teskari matritsa usuli, Kramer qoidasi.

5. Nazorat savollari.

1. Matritsalar ustida amallarning ta'rifini va hossalari bayon qiling.
2. Qarama-qarshi matritsa qanday aniqlanadi? U qanday hossalarga ega?
3. Determinant haqida tushuncha bering.
4. Teskari matritsa deb nimaga aytiladi?
5. Teskari matritsa qanday hisoblanadi?
6. Gauss usulini bayon qiling.
7. Teskari matritsa usulini bayon qiling.
8. Kramer qoidasini bayon qiling.

2-MAVZU. MATEMATIK TAHLIL ELEMENTLARI.

1. Maqsad: Matematik tahlil asoslarini takrorlash.

2. Reja:

1. Sonli funktsiyalar.
2. Funktsiya limiti va uzluksiz funktsiyalar xaqida tushuncha.
3. Funktsiya limitini hisoblash
4. Hosila tushunchasi. Hosilalar jadvali.
5. Differentsiallanuvchi funktsiyalar hossalari.
6. Hosila tadbirlari.

3. Mavzu bayoni.

Sonli funktsiyalar.

R orqali xaqiqiy sonlar to'plamini belgilaymiz. Uning qism to'plamlarini sonli to'plamlar deb yuritamiz.

Ta'rif. D sonli to'plamlarga tegishli har bir x soniga biror qoidaga binoan x ga bog'liq bo'lgan y sonni taqqoslovchi moslik aniqlanish sohasi D dan iborat bo'lgan sonli funktsiya (funktsiya) deyiladi.

Funktsiyalar odatda lotin xarflari bilan belgilanadi. Ixtiyoriy f funktsiyani qaraymiz. x ga mos bo'lgan y sonni f funktsiyaning x nuqtadagi qiymati deyiladi va $f(x)$ orqali belgilanadi.

D to'plam f funktsiyaning aniqlanish sohasi deyiladi va $D(f)$ orqali belgilanadi.

Ko'pincha sonli funktsiya formula yordamida berilgan bo'lib, uning aniqlanish sohasi argumentlarning joiz qiymatlaridan iborat (ushbu aniqlanish sohasi tabiiy deyiladi).

Ta'rif. f funktsiya berilgan bo'lsin.

a) $\{y / (\exists x \in D(f)) y = f(x)\}$ to'plam f funktsiyaning *qiymatlar to'plami* deb yuritiladi va $E(f)$ orqali belgilanadi.

b) $\{(x,y) \in \mathbf{R}^2 / x \in X, y = f(x)\}$ kurinishdagi to'plam f funktsiyaning *grafigi* deyiladi.

Funktsiyalar ustida algebraik amallar qo'yidagicha kiritiladi:

$$(f \pm g)(x) = f(x) \pm g(x), D(f \pm g) = D(f) \cap D(g)$$

$$(f \cdot g)(x) = f(x) g(x), D(f \cdot g) = D(f) \cap D(g)$$

$$\frac{f}{g}(x) = \frac{f(x)}{g(x)}, D\left(\frac{f}{g}\right) = \{x \in D(f) \cap D(g) / g(x) \neq 0\}$$

Ta'rif. f, g funktsiyalar uchun $h(x) = g(f(x))$ tenglik bilan aniqlangan va aniqlanish sohasi $D(h) = \{x \in D(f) / f(x) \in D(g)\}$ bo'lgan h funktsiya *murakkab funktsiya* deyiladi va u $g \circ f$ yoki $g \circ f$ orqali belgilanadi.


Adabiyotlarda $g \circ f$ funktsiya g va f funktsiyalar *superpozitsiyasi* yoki *kompozitsiyasi* deb yuritiladi.

Ta'rif. f funktsiya uchun $(f \circ g)(x) = x, \forall x \in D(f)$ va $(g \circ f)(x) = x, \forall x \in D(g)$ tengliklarni ta'minlovchi g funktsiya mavjud bo'lsa, u holda f funktsiya *teskarilanuvchi funktsiya*, g funktsiya esa f funktsiyaga *teskari funktsiya* deyiladi va f^{-1} orqali belgilanadi.

Funktsiya limiti va uzluksiz funktsiyalar xaqida tushuncha.

$f(x)$ funktsiya x_0 biror atrofida aniqlangan bo'lsin.

Ta'rif. a soni $y = f(x)$ funktsiyaning x_0 nuqtada limiti deyiladi $\left[a = \lim_{x \rightarrow x_0} f(x) \right]$, agar ihtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun shunday $\delta(\varepsilon) > 0$ mavjudki, $0 < |x - x_0| < \delta(\varepsilon)$ qushtengsizlikni qanoatlantiradigan barcha x lar uchun $|f(x) - a| < \varepsilon$ tengsizlik o'rinli bo'lsa (1-rasm).



1- rasm.

Funktsiya limitini hisoblash

Ajoyib limitlar:

$$\lim_{x \rightarrow 0} \frac{\sin x}{x} = 1. \quad \text{- I-ajoyib limit}$$

$$\lim_{x \rightarrow \infty} \left(1 + \frac{1}{x} \right)^x = \lim_{x \rightarrow 0} (1 + x)^{\frac{1}{x}} = e \quad \text{- II -ajoyib limit.}$$

II - ajoyib limitdan qo'yidagi tengliklar kelib chiqadi:

$$\lim_{x \rightarrow 0} \frac{\ln(1+x)}{x} = 1, \quad \lim_{x \rightarrow 0} \frac{e^x - 1}{x} = 1.$$

Misollar.

$$a) \lim_{x \rightarrow 1} \frac{x^2 - 2x + 1}{x^3 - x} = \lim_{x \rightarrow 1} \frac{(x-1)^2}{x(x-1)(x+1)} = \lim_{x \rightarrow 1} \frac{x-1}{x(x+1)} = 0;$$

$$b) \lim_{x \rightarrow 0} \frac{\operatorname{tg} 3x}{x} = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{3 \sin 3x}{3x \cos 3x} = 3.$$

$$c) \lim_{x \rightarrow 10} \frac{\sqrt{x-1} - 3}{x-10} = \begin{cases} \sqrt{x-1} = t \\ x = t^2 + 1 \\ x \rightarrow 10 \Rightarrow t \rightarrow 3 \end{cases} = \lim_{t \rightarrow 3} \frac{t-3}{t^2-9} = \lim_{t \rightarrow 3} \frac{t-3}{(t-3)(t+3)} = \frac{1}{6}$$

d)

$$\lim_{x \rightarrow 0} \frac{\sqrt{x+1} - 1}{x} = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{(\sqrt{x+1} - 1)(\sqrt{x+1} + 1)}{x(\sqrt{x+1} + 1)} = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{x}{x(\sqrt{x+1} + 1)} = \frac{1}{2}.$$

e)

$$\lim_{x \rightarrow \infty} \left(\frac{x+3}{x-2} \right)^{2x+1} = \lim_{x \rightarrow \infty} \left(\frac{x-2+5}{x-2} \right)^{2x+1} = \lim_{x \rightarrow \infty} \left(1 + \frac{5}{x-2} \right)^{\frac{x-2}{5} \cdot \frac{5}{x-2} (2x+1)} = e^{\lim_{x \rightarrow \infty} \frac{5(2x+1)}{x-2}} = e^{10}.$$

Agar $f(x_0) = \lim_{x \rightarrow x_0} f(x)$ bo'lsa, u holda f funktsiya x_0 nuqtada *uzluksiz* deyiladi.

Agar f funktsiya I sonli to'plamning barcha nuqtalarida uzluksiz bo'lsa, u holda u I to'plamda *uzluksiz* deyiladi.

Ko'pincha I sonli to'plam sifatida oraliq qaraladi va ushbu oraliq *uzluksizlik oraliq'i* deyiladi.


Shuni ta'kidlash lozimki, maktab matematikasida o'rganilgan deyarli barcha funktsiyalar o'zining tabiiy aniqlanish sohalarida uzluksiz funktsiyalar bo'ladi.

Hosila tushunchasi.

Ta'rif. $y = f(x)$ funktsiyaning x_0 nuqtadagi *hosilasi*

$$y'(x_0) = f'(x_0) = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{(f(x_0 + \Delta x) - f(x_0))}{\Delta x} \text{ formula bilan aniqlanadi.}$$

f funktsiyaning x_0 nuqtadagi hosilasi ushbu funktsiyaning grafigiga $M = (x_0, f(x_0))$ nuqta orqali o'tkazilgan o'rinmaning *burchak koeffitsientini* bildiradi, ya'ni $f'(x) = \operatorname{tg} \varphi_0$ (2-rasm)



2-rasm

Agar f funktsiyaning x_0 nuqtada chekli hosilaga ega bo'lsa, u holda ushbu funktsiya x_0 nuqtada *differentiallanuvchi* deyiladi, biror to'plamning barcha nuqtalarda differentiallanuvchi funktsiya esa mazkur to'plamda *differentiallanuvchi* deb yuritiladi.

Shunday qilib, berilgan nuqtada differentiallanuvchi f funktsiyaga uning shu nuqtadagi f' hosilasini mos qo'yish mumkin. Ushbu moslik yordamida aniqlangan f' funktsiya f funktsiyaning hosilasi deyiladi va u qo'yidagi aniqlanish sohaga ega

$$D(f') = \{x_0 \in D(f) / \exists \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{(f(x_0 + \Delta x) - f(x_0))}{\Delta x}\}.$$

Agar f' hosila o'zi biror $x_0 \in D(f')$ nuqtada differentiallanuvchi bo'lsa, u holda uning $(f')'(x_0)$ hosilasi f funktsiyaning x_0 nuqtadagi *ikkinchi tartibli hosilasi* deyiladi va $f''(x_0)$ yoki $\frac{d^2 f(x_0)}{d^2 x}$ orqali belgilanadi.

$f^{(n)}(x_0) = (f^{(n-1)})'(x_0)$ rekkurent formula yordamida f funktsiyaning x_0 nuqtadagi n -tartibli hosilasini aniqlashimiz mumkin.

Hosilalar jadvali.

$$1) C' = 0;$$

$$2) (x^m)' = mx^{m-1};$$

$$3) (\sqrt{x})' = \frac{1}{2\sqrt{x}}$$

$$4) \left(\frac{1}{x}\right)' = -\frac{1}{x^2}$$

$$5) (e^x)' = e^x$$

$$9) (\sin x)' = \cos x$$

$$10) (\cos x)' = -\sin x$$

$$11) (\tan x)' = \frac{1}{\cos^2 x}$$

$$12) (\cot x)' = -\frac{1}{\sin^2 x}$$

$$13) (\arcsin x)' = \frac{1}{\sqrt{1-x^2}}$$

Differentsiallanuvchi funktsiyalar hossalari.

Agar f, g funktsiyalar x_0 nuqtada differentsiallanuvchi bo'lsa, u holda $f \pm g$,

$f \cdot g, \left(\frac{f}{g}\right)$ (agar maxraji noldan farqli bo'lsa) ham shu nuqtada differentsiallanuvchi

bo'lib, qo'yidagi formulalar o'rinli:

$$a) (f \pm g)' = f' \pm g' \quad b) (f \cdot g)' = f'g + fg' \quad v) \left(\frac{f}{g}\right)' = \frac{f'g - fg'}{g^2}.$$

Misol. a) $y = x^3 + \ln x$; b) $y = (x^3 - 5)\sin x$; v) $y = \frac{x^3 - 5}{x^4 + 3}$ funktsiyalarning hosilasini toping.

Yechish. a) $y' = (x^3)' + (\ln x)' = 3x^2 + \frac{1}{x}$;

b) $y' = (x^3 - 5)' \sin x + (x^3 - 5) \sin' x = 3x^2 \sin x + (x^3 - 5) \cos x$

c) $y' = \frac{(x^3 - 5)'(x^4 + 3) - (x^3 - 5)(x^4 + 3)'}{(x^4 + 3)^2} = \frac{3x^3(x^4 + 3) - (x^3 - 5) \cdot 4x^4}{(x^4 + 3)^2} = \frac{-x^6 + 20x^3 + 9x^2}{(x^4 + 3)^2}$

2) Agar $y = f(x)$, $u = g(x)$ ($D(u) \subset D(y)$) funktsiyalar differentsiallanuvchi bo'lsa, u holda $y = f(g(x))$ murakkab funksiya differentsiallanuvchi bo'lib, qo'yidagi formula o'rinli:

$$y' = f'(u) \cdot u'$$

Misol. $y = \cos(x^3 - x^2 + 2)$ funktsiyaning hosilasini toping.

Yechish. $u = x^3 - x^2 + 2$, $u' = 3x^2 - 2x$, $y = \cos u$, $f'(u) = -\sin u$, demak

$$y' = (\cos(x^3 - x^2 + 2))' = -(3x^2 - 2x) \sin(x^3 - x^2 + 2)$$

Hosila tadbiqlari.

Ta'rif. Agar ixtiyoriy turli $x_1, x_2 \in (a, b) \subset D(f)$ nuqtalar uchun $\frac{f(x_2) - f(x_1)}{x_2 - x_1}$

ifoda musbat (manfiy) qiymatlarni qabul qilsa, u holda f funksiya (a, b) oraliqda *o'suvchi* (*kamayuvchi*) funksiya deyiladi, (a, b) oraliq esa *monotonlik oraliq'i* deyiladi

Ta'rif. Agar f funktsiyaning $x_0 \in D(f)$ nuqtadagi qiymati bu nuqtaning etarli-cha kichik atrofidagi qolgan nuqtalardagi qiymatlaridan katta (kichik) bo'lsa, f funksiya x_0 nuqtada *lokal maksimumga* (*lokal minimumga*) erishadi deyiladi.

Ta'rif. Agar f funksiya I to'plamda (I to'plam sifatida oraliq yoki kesma qaralishi

mumkin) aniqlangan bo'lib, uning biror $x_0 \in I$ nuqtadagi qiymati I to'plamning qolgan nuqtalardagi qiymatlaridan kichik emas (katta emas) bo'lsa, f funktsiya x_0 nuqtada *maksimumga (minimumga) erishadi* deyiladi. Funktsiyaning maksimum (minimum) nuqtaga mos bo'lgan qiymati *maksimum (minimum)* deyiladi va $\max_I f(x)$ ($\min_I f(x)$) orqali belgilanadi. Funktsiyaning minimumlari va maksimumlari funktsiyaning *ekstremumlari* deyiladi.

Teorema (*o'sish va kamayish sharti*). Agar f funktsiyaning ixtiyoriy $x \in (a,b) \subset D(f)$ nuqtasi uchun $f'(x)$ ifoda musbat (manfiy) qiymatlarni qabul qilsa, u holda f funktsiya (a,b) oraliqda *o'suvchi (kamayuvchi)* funktsiya bo'ladi.

Misol. $y = x^3 - x^2 - x + 2$ funktsiyaning monotonlik oraliqlarini toping.

Yechish. $y' = (x^3 - x^2 - x + 2)' = 3x^2 - 2x - 1 = 3(x-1)(x+\frac{1}{3})$. Demak, $(-\frac{1}{3}, 1)$ da funktsiya

kamayadi, $(-\infty, -\frac{1}{3}) \cup (1, +\infty)$ da esa o'sadi.

Teorema (*ekstremumning zaruriy sharti*) Agar f funktsiya $x_0 \in D(f)$ nuqtada lokal ekstremumga erishsa, u holda f funktsiyaning hosilasi x_0 nuqtadagi qiymati nolga teng bo'ladi.

Teorema (*ekstremumning etarli sharti*). Agar $f'(x_0)=0$ bo'lib, $f''(x_0) < 0$ ($f''(x_0) > 0$) bajarilsa, u holda f funktsiya x_0 nuqtada lokal maksimumga (lokal minimumga) erishadi.

Misol. $y = x^3 - x^2 - x$ funktsiyaning $[0,2]$ da ekstremumlari topilsin.

Yechish. $y' = (x^3 - x^2 - x)' = 3x^2 - 2x - 1 = 3(x-1)(x+\frac{1}{3}) = 0$. $[0,2]$ kesmaga faqat $x=1$ «shubhali» nuqta tegishli. $y''(1) = 4 > 0$ bo'lgani uchun $x=1$ – lokal minimum nuqtasi bo'ladi. $y(1) = -1$, $y(0)=0$, $y(2)=2$ dan $x=1$ – minimum, $x=2$ maksimum nuqtalari.

Demak, $\max_{[0,2]} y = y(2)=2$, $\min_{[0,2]} y = y(1) = -1$.

Boshlang'ich funktsiya va aniqmas integral.

Ta'rif. Biror (a,b) oraliqda aniqlangan f funktsiyaning *boshlang'ich funktsiyasi* deb shu oraliqning barcha nuqtalarda $F'(x)=f(x)$ shartni qanoatlantiradigan $F(x)$ funktsiyaga aytiladi.

Agar $F(x)$ va $F(x)$ funktsiyalar f funktsiyaning boshlang'ich funktsiyalari bo'lsa, u holda $F(x) = F(x)+C$ bo'ladi, bu yerda C - uzgarmas son, va aksincha, agar $F(x)$ funktsiya f funktsiyaning boshlang'ich funktsiyasi bo'lsa, u holda $F(x) = F(x)+C$ funktsiya ham f funktsiyaning boshlang'ich funktsiyasi bo'ladi.

Ta'rif. Agar $F(x)$ funktsiya f funktsiyaning boshlang'ich funktsiyasi bo'lsa, u holda $F(x) = F(x)+C$ ko'rinishdagi barcha funktsiyalar to'plami f funktsiyadan *aniqmas integrali* deyiladi va u $\int f(x)dx$ kabi belgilanadi.

Integrallar jadvali

1	$\int \lg x dx$	$-\ln / \cos x / + C$	9	$\int e^x dx$	$e^x + C$
2	$\int \operatorname{ctg} x dx$	$\ln / \sin x / + C$	10	$\int \cos x dx$	$\sin x + C$
3	$\int a^x dx$	$\frac{a^x}{\ln a} + C$	11	$\int \sin x dx$	$-\cos x + C$

4	$\int \frac{dx}{a^2 + x^2}$	$\frac{1}{a} \arctg \frac{x}{a} + C$	12	$\int \frac{1}{\cos^2 x} dx$	$tgx + C$
5	$\int \frac{dx}{x^2 - a^2}$	$\frac{1}{2a} \ln \left \frac{x+a}{x-a} \right + C$	13	$\int \frac{1}{\sin^2 x} dx$	$-ctgx + C$
6	$\int \frac{dx}{\sqrt{x^2 \pm a^2}}$	$\ln \left x + \sqrt{x^2 \pm a^2} \right + C$	14	$\int \frac{dx}{\sqrt{a^2 - x^2}}$	$\arcsin \frac{x}{a} + C$
7	$\int x^\alpha dx$	$\frac{x^{\alpha+1}}{\alpha+1} + C, \alpha \neq -1$	15	$\int \frac{dx}{x}$	$\ln x + C$

Integrallash usullari

Aniqmas integral ta'rifidan qo'yidagi integrallash qoidalari kelib chiqadi:

a) $\int F'(x)dx = F(x)$; b) $\int c f(x)dx = c \int f(x)dx$; c) $\int (f(x) \pm g(x)) dx = \int f(x)dx \pm \int g(x)dx$;

d) $\int u'(x)v(x)dx = u'(x)v(x) - \int u(x)v'(x)dx$ – bo'laklab integrallash ;

e) $x=g(t) \Rightarrow \int f(x)dx = \int f(g(t))g'(t)dt$ – almashtirish yordamida integrallash;

Misollar.

$$\int (2x+1)^{20} dx = \int \frac{1}{2} dt = \frac{1}{2} t^{21} \cdot \frac{1}{2} + C = \frac{t^{21}}{42} + C = \frac{(2x+1)^{21}}{42} + C$$

$$\int \frac{\sqrt{2-x^2} + \sqrt{2+x^2}}{\sqrt{4-x^4}} dx = \int \frac{\sqrt{2-x^2} + \sqrt{2+x^2}}{\sqrt{2-x^2} \sqrt{2+x^2}} dx = \int \frac{dx}{\sqrt{2+x^2}} + \int \frac{dx}{\sqrt{2-x^2}} = \ln \left| x + \sqrt{x^2+2} \right| + \arcsin \frac{x}{\sqrt{2}} + C.$$

$$\int \frac{\cos x}{\sqrt{\sin^3 x}} dx = \int \sin^{-3/2} x \cos x dx = \int t^{-3/2} dt = -2t^{-1/2} + C = -2 \sin^{-1/2} x + C = -\frac{2}{\sqrt{\sin x}} + C.$$

Bo'laklab integrallash qoidasi yordamida qo'yidagi ko'rinishda integrallar topiladi:

